




## BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**XIZMATLAR  
SOHASINING  
RIVOJLANISHI**

**2022- YILNING YANVAR OYI**



## BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari orasida xizmatlar sohasi ustunlik qiladi.

Ilg'or mamlakatlarning zamonaviy rivojlanish darajasi turli xil xizmatlar ishlab chiqsh va ularning bozorini jadal rivojlanishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezonidir.

### XIZMATLAR

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi  
**-1 059,3**  
mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi –  
**65,2 %**

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari –  
**111,9 %**



2022- yil  
YANVAR

### SOHASI

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –  
**539,9** ming so'm

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi –  
**64,7 %**

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmalarning o'sish sur'atlari –  
**110,4 %**

1

Xizmatlar sohasini rivojlantirish




## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 059,3** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **175,6** mlrd. so'mga oshdi.


Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **111,9 %** ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





# BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>1 059,3</b>	<b>111,9</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	46,8	118,8
Moliyaviy xizmatlar	206,9	132,4
Transport xizmatlari	226,8	114,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	203,4	109,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	44,1	105,1
Savdo xizmatlari	340,9	105,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	22,6	108,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	38,6	85,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	21,6	114,9
Ijara xizmatlari	25,3	85,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	21,5	107,8
Shaxsiy xizmatlar	21,8	110,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	10,7	123,3
Boshqa xizmatlar	31,7	117,9

3

Xizmatlar sohasini rivojlantirish



# BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar**

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar oyida savdo xizmatlari umumiyligi hajmning **33,3 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **0,9 %**.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.


Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoxda.



2022- yil yanvar oyida yuqori o'sish moliya sohasidagi xizmatlarda (**32,4 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**23,3 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**18,8 %**), boshqa xizmatlarda (**17,9 %**), sog'liq sohasidagi xizmatlarda (**14,9 %**), transport xizmatlarida (**14,0 %**), shaxsiy xizmatlarda (**10,7 %**) hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarida (**8,4 %**) qayd etildi.

**4**


*Xizmatlar sohasini rivojlantirish*



*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar*

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da





*Dastlabki ma'lumotlar*


*2022- yil yanvar*

2022- yilning yanvar oyida avtomobil transporti xizmatlarining yuqori o'sishiga Buxoro (**09,3 %**), Kogon (**04,1 %**) shaharlarida, Romitan (**14,9 %**), Qorovulbozor (**13,1 %**) va Olot (**12,0 %**) tumanlarida erishildi. Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Kogon tumanida (**106,6 %**) qayd etildi.

### Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da

(2022- yil yanvar oyida)

Buxoro viloyati





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar





**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,2 %** ni tashkil etib, bu **340,9 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar oyida ularning hajmi **294,1 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmning **33,3 %** iga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari






## Dastlabki ma'lumotlar

**2022- yil yanvar**


2022- yil yanvar oyida savdo xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etilgan - **80 767,8 mln. so'm**.

Shu bilan birga, shahar va tumanlar orasida G'ijduvon (**51 041,1 mln. so'm**), Vobkent (**29 603,5 mln. so'm**), Peshku (**27 962,1 mln. so'm**), Buxoro (**26 601,0 mln. so'm**), Jondor (**23 915,3 mln. so'm**) va Romitan (**18 542,3 mln. so'm**) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mln. so'mda (2022- yil yanvar oyida)



■ Hajm, mln. so'm   ■ O'sish sur'ati, % da



## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i, **75,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **16,7 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,5 %**) tashkil etdi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar oyida)

Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar  
savdosidan tashqari)

Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan tashqari  
chakana savdo bo'yicha  
xizmatlar

Avtomobillar va  
mototsikllar ulgurji va  
chakana savdosi,  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda

16,7

75,8

7,5

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida chakana savdo ulushi **74,4 %** ga yetdi